

## AMERIKA HINDU YOZUVCHILARI IJODIDA TARIXIY MANBALAR TASVIRI

*Muxammedova Nilufar Eliboyevna*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, (PhD)*

## USE OF HISTORICAL SOURCES IN NATIVE AMERICAN LITERATURE

*Mukhammedova Nilufar Eliboyevna*

*Uzbekistan state world languages university*

*Associate professor., (PhD)*

## ТАНЕЦ КАК ИСТОРИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПИСАТЕЛЕЙ КОРЕННЫХ АМЕРИКАНЦЕВ

*Мухамедова Нилуфар Элибоевна*

*Доцент Узбекского государственного университета мировых языков, (PhD)*



nilufarmuhammedova@  
yahoo.com

Orcid: 0009-0005-3067-  
0683

**Annotatsiya:** Maqolada amerika hindu yozuvchilari ijodida tasvirlangan ruhlar raqsi tarixiy manba sifatida tahlil qilindi. Amerika hindu yozuvchilari ijodida kuzatilgan raqsda tarix va zamonaviy amerika hayot uyg'unlashganligini ko'rish mumkin. Raqsning o'ziga xos tarixiy yo'lida ruhlar raqsidan maysalar raqsigacha bosib o'tgan bosqichlar aks etadi. Amerika hindu yozuvchilari o'zlikni tiklash va anglashda mana shu hindular raqsini yorqin ranglarda tasvirashga urinishgani tahlilga tortildi.

**Tayanch so'zlar:** hindu, raqs, tarix, amerika, folklor, asar, manba.

**Abstract:** The paper deals with the analysis of Ghost Dance described in the novels of Native American writers. In the novels of these writers there is integration of the history of Ghost Dance and modern American life. Native American writers refer to the history of Native Americans and describe the process of development of Ghost Dance to Grass Dance. The analysis of the use of historical sources in the novels of Native American writers demonstrate Indian identity and how identity is reflected in different colours and movements of Native American dances.

**Key words:** Indian, dance, history, America, folklore, novels, source

**Аннотация:** Статья посвящена анализу Танца призраков, описанного в романах коренных американских писателей. В романах этих писателей прослеживается интеграция истории Танца призраков и современной американской жизни. Писатели обращаются к истории коренных американцев и описывают процесс превращения Танца призраков в танец травы. Анализ использования исторических источников в романах коренных американских писателей демонстрирует самобытность индейцев и то, как она отражается в различных цветах и движениях индейских танцев.

**Ключевые слова:** коренной американец, танец, история, америка, фольклор, роман.

**Kirish.** Amerika hindu yozuvchilari ijodida tasvirlangan raqslarda 1890-yilda AQSH tarixida ro'y burgan Ruhlar raqsi (Ghost dance) keng tasvirlangan. Ahamiyatli jihati shundaki bu raqs asardan asarga ko'char ekan, amerika hindu yozuvchilari mana shu raqsni har tomonlama ochib

berishga harakat qilishgan. Yana bir jihati esa bu asarlarda biz Ruhlar raqsi bilan birga Vundid Ni massakre birga juft holda tasvirlaganining guvohi bo'lamiz. Amerika hindu yozuvchilari Ruhlar raqsi bilan Vundid Ni massakreni bir-biridan ayro holda tasvirlamaydi. Ikkala raqs obrazida yozuvchilar

yo'qotish va yangilanishni, an'ana va yaratuvchanlikni, qabilalar orasidagi chegarani buzib yuboradi va qabilalarning o'ziga xosligini ham ko'rsatib beradi. Amerika hindu yozuvchilarining bu ikkala raqs obraziga qayta va qayta murojaat qilishganini ochib berish uchun biz bu raqs tarixiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

**Adabiyotlar tahlil va metodologiya.** Folklor elementlaridan biri bo'lgan raqslarni amerika hindu lar knteksitda ifoda qilishda biz tarixiy-tarixiy metod asosida tahlil qiamiz. Raqsning tarixi amerika hindu adiblari asarlarida ko'plab marotaba murojaat qilindi. Jumladan, Ruhlar raqsi (Ghost Dance) ilk marta murojaat qilgan hindu adibasi S.E.Kallaxan bo'ldi. 1890-yilda sodir bo'lgan voqeadan bir yil o'tib Elis Kallaxan "Vinema: O'rmon bolasi" (Wynema: A child of the forest 1891) asarini yaratdi. Adiba asarda Ruhlar raqsiga oid miflardan qolaversa afsonalardan unumli foydalandi. Mana shu romani orqali 1890-yilgi to'qnashuvga o'z munosabatini bildirdi. 1916-yilda esa amerika hindu yozuvchisi Charlz Istman Ruhlar raqsi tarixiga murojaat qildi va "O'rmonlardan tamaddun sari" (From the Deep Woods to Civilization 1916) nomli asarini yaratdi. 1932-yilda esa Lakota qabilasiga mansub amerika hindu adibi Nikolas Blek Elkning avtobiografik romani "Blek Elk so'zlaydi" nomli romani chop etiladi. XXI asrga kelib esa Sherman Aleks va Syuzen Poverlar romanlarida Ruhlar raqsi va Vundid Ni sohili voqealarni qayta jonlantirdi.

Amerikalik tadqiqotchi Jerald Vayznor Ruhlar raqsi obrazini yaratgan amerika hindu yozuvchilarni ikki guruhga ajratadi: birinchi guruhga mansub yozuvchilar Ruhlar raqsini ijro etgan va bunga guvoh bo'lgan hindular bilan suhbatlashish orqali manba yiqqan yozuvchilardir. Vayznor XX asr davomida va hozirgi kunda ijod qilayotgan amerika hindu adiblarini post indian yozuvchilari deb ataydi [9]. Bunga sabab esa barcha manbalarni tarixdan izlashganidadir. Ba'zan ular yaratgan obrazlar to'qima obrazdir.

Hozirgi kunda ijod qilayotgan Sherman Aleks "Reservation Blues" (1995) va "Qotil hindu (Indian Killer 996)", ikkita hikoyalar to'plami kabi ijod namunalarida Ruhlar raqsi o'z ifodasini topgan. "Qotil Hindu" asarida ruhlar raqsini ifoda qilgan adib "balki qotil hinduning o'zi ruhlar raqsining natijasidir, balki o'nta hinduning o'zi ruhlar raqsini ijro etgandir, balki bu ruhlar raqsining qanday ijro etilishidir" [7]. Adib bunday fikrlarni bildirar ekan

o'z izlanishlarining natijasini kitobxonga havola qiladi. Ruhlar raqsini chuqur o'rganishga kirishgan adib o'z izlanishlarida yozma manbalarga tayanib obrazlar yaratadi.

1993-yilda nashr etilgan ilk hikoyalar to'plami "The Loe ranger and Ponto fistfight in heaven" bunda ruhlar raqsi kelajakka katta umid bilan qarashni ifoda etadi. Jumladan, "A drug called tradition" hikoyasida Tomas, Viktor va Junio Pulatkin kabi obrazlarni yaratadi. Ziyofatda ichkilik ichgan uchala yigit uyga qaytarkan o'zlari haqida hikoyalar aytishadi. Bu hikoyalarda ruhlar raqsi aks etadi: "ularning hammasi qabilam bilan ketgan. Ular qoldirgan buyumlarda bizlarni o'ldirayotgan buyumlar bor. Men qabilamning so'nggi hindusiman va og'ir kasalman. Tanamda haroratim juda balandb kiyimlarimni yechishim, sovuq suv va havoni his qilishim kerak shunda raqsga tushaman. Mun ruhlar raqsini ijro qilaman va ularni hayotga qaytaraman. Do'mbira ovozini eshityapsizmi? Men ularni eshityapman bu mening bobom va buvimning do'mbiro jo'rligida qo'shiq kuylashi, ularni eshityapsizmi". "Men raqsning birinchi bosqichini ijro qilaman va singlim hayotga qaytadi. Men yana raqsga tushaman shunda baffolo osmondan tushadi, raqsning har bir ijrosidan so'ng hindular hayotga qaytadi. Biz shunday yo'sinda raqsga tushamiz"[ 8].

Adabiyotshunos Jeyms Koks Sherman Aleksining bunday hikoya qilishini quyidagicha izohlaydi: "Aleksi ruhlar raqsi orqali tarixni jonlantirdi. Uning bunday uslubi o'zlikka qaytish demakdir" [2]. Yozuvchining o'zi esa tasavvur bu o'zlikni saqlab qolish yo'lidir deb ta'kidlaydi.

**Natijalar va muhokama.** Tarixchilar amerika hindulari madaniyatida ikki xil ruhlar raqsi mavjudligini ta'kidlashadi. Birinchisi bu 1870-yilda ro'y bergan, 1890- yilda sodir bo'lgan ruhlar raqsidir. Ikkala raqs ham Nevada shtatidagi Walker River Reservation - Volker daryosi hududida yashovchi Payyut qabilasiga mansub ikki hindu tabiblar bilan bog'liq. Bu tabiblarning biri bo'lgan Vodzivobga 1860-yillarda raqs an'anasini o'z qabilasida davom ettirish vazifasi yuklangan bo'lsa, ikkinchi tabib Vovokaga esa 1889-yilda raqs an'anasini o'z qabilasiga o'rgatish vazifasi yuklangan.

Tarixchi Yelis Kexoning ta'kidlashicha 1867-yilda yuz bergan tif epidemiyasi natijasida Payyut qabilasining o'ndan bir qismi vafot etadi. 1868-yilning bahoriga kelib Payyut qabilasining yigirma

besha yaqini asosan bolalar qizamiqdan vafot etishadi. Tabib Vodzivob unga kuch bag'ishlovchi tush ko'radi. Tushida u vafot etganlarning ruhlarini oilalariga qaytarish yo'li mavjudligini ko'radi. U bunga qattiq ishonadi ham. Tabib Vodzivob Payyut qabilasining jon berayotgan hindularini hayotga qaytargan edi. Shu bois Payyut qabilasining barchasi uni avliyo deb biladi va uning aytganlariga so'zsiz rioya qiladi. Tabib Payyutlarning barchasiga bayramlarga qanday yasanib chiqishsa, xuddi shunday chiroyli yasanib chiqishni va aylana shaklida raqs tushishni aytadi. Payyutlar raqsga tushishadi va nafas rostdash uchun raqsdan to'xtashganda bir zumga Vodzivob ruhi tog'lar osha ruhlar makoniga yo'l oladi. U ruhlar makonida vafot etib ketgan qabila a'zolarining uch yoki to'rt yilda qaytib kelishi haqida xabarini olib keladi. Payyut qabilasi bu xabardan hayratga tushishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ular suyunib ketishadi va Vodzivobni avliyo deb tan olishadi[2].

Tabib Vovoka esa ruhlar makoniga borganida unga vafot etib ketganlar ruhlar aylana shaklda raqs to'g'ri ijro etilsa, ruhlar o'z qabilasiga qaytishi mumkinligini aytishadi. Vovoka Payyut qabilasiga raqsnı qoidaga ko'ra to'g'ri ijro qilish kerakligini qayta-qayta uqtiradi. Noto'g'ri raqs ijrosi hech qanday natija bermasligini u yaxshi tushunar edi.

Ikkala tabibning qobiliyati bir-biriga o'xshab ketsa-da, ular orasida farq mavjud. Tarixchi Maykl Xitman mana shu tafovutga e'tibor qaratadi [3]. Uning fikricha avliyo Vodzivob raqs ijrosidan so'ng ruhlar makoniga borsa, avliyo Vovoka esa raqsdan oldin ruhlar makoniga borib raqs ijrosi haqidagi xabarnı olib keladi.

1869-1970-yillarda Volker daryo hududiga borgan armiya kapitani J.M.Li o'z kundaligida tabib Vodzivobning g'ayrioddiy qobiliyati va Payyut qabilasi hayoti haqida quyidagilarnı yozgan: "1860-yillarning boshida amerika harbiylari Nevada shtati hindular yerlarini o'zlashtirib olishga kirishishdi. Mana shu jarayonda ular tabib Vodzivobning g'ayrioddiy qobiliyatiga guvoh bo'lishadi, uning toqqa chiqib ketib u yerda buyuk ruh (Great Spirit)ga duch kelganligi haqidagi hikoyalarnı eshitishadi. Mana shu hikoyalardan biri tez orada yer qimirlashi haqidagi xabar edi. Zilzila sodir bo'lganda oq tanlilarning uylari, buyum va oziq ovqatlari qolib, askarlarning o'zlarini yer yutib yubordi. Payyutlarning o'zi esa zilziladan aziyat chekmaydi" [6].

Yuqorida qayd etilgan ruhlar raqsi oqibati shunday vayronagarchilikka olib kelgan bo'lsa, 1870-yildagi ruhlar raqsi esa amerika va hindular o'rtasidagi nizoni kuchaytirib yuborishga sabab bo'ldi. Biroq bu raqsnı sinchiklab o'rgangan tarixchi Elis Kexo o'zgacha yondashdi. Tarixchining fikricha Vodzivobning raqsi qabilalarnı birlashtirishga xizmat qildi. Garchand Vodzivob o'liklarnı hayotga qaytara olgan yoki yo'q, u aynan Payyut hindu qabilasining vatanparvarlik hissini kuchaytirishga sabab bo'ldi. Raqsnıing ahamiyatli jihati shunda ediki, boshqa hindu qabilalarining raqs elementlari bilan uyg'unlashtirildi. Aynan raqs ijrosida elementlar boyitildi. Shu tariqa raqs hindular madaniyatida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Fikrimizga ko'ra o'ziga xos tarixiy yo'lnı bosib o'tgan ruhlar raqsi amerika hindu yozuvchilari uchun debocha vazifasini o'tadi. Turli qabilalar tomonidan ijro etilgan ruhlar raqsining bugungi kunda ko'plab variantlari mavjudligi kuzatildi. Aynan ruhlar raqsi ijrosi bilan vafot etganlarnı hayotga qaytarishga bo'lgan ishonch bilan vatanparvarlik tuyg'usini uyg'ota olgan tabiblarda mo'jizaviy realizmga xos folkloristik elementni namoyon qiladi.

1890-yilda ijro etilgan ruhlar raqsi 1870-yilda sodir bo'lgan ruhlar raqsdan ko'ra ko'proq e'tiborni tortdi. Raqsga Vundid Ni Massakrening bog'liqligi va unga aloqador bo'lgan mif va afsonalar bunga sabab bo'lgan edi. Mana shu tufayli u katta ahamiyat kasb etdi.

Antropolog Jeyms Muni 1890-yilda ijro etilgan ruhlar raqsini keng talqin etish uchun avliyo Vovokaning kelib chiqish tarixiga e'tibor qaratadi. Vovoka 1856 va 1863-yillarda g'arbiy Nevadada tug'ilgan taxmini keltiradi. Shu bois u ilk bor ruhlar raqsi ijro etilganda o'n yoshli bolakay edi. Vovokaning otasi Numu-tibo 1870-yilda ijro etilgan raqsdan avliyo Vodzivobning bosh yordamchisi bo'lgan. Numu-tibo ham Vodzivob kabi tabiblik qilardi. Payyut qabilasidagilar Numu-tibodagi tabiblik qobiliyatini ko'rib uning o'g'lida ham bu borligiga ishonishardi. Keyinchalik Numu-tibo o'z qabilasini himoya qilish maqsadida urushga ketdi. Natijada kun ko'rish maqsadida Vovoka Vilsonlar oilasiga tegishli ranchoda ishlay boshlaydi. Ranchoda u Vilsonlarning ikki o'g'li bilan juda yaqin do'st bo'lib qoladi. Bolalar orasidagi do'stlik samimiy tus oladi va oila Vovokaga amerikancha Jek Vilson ismini berishadi. O'tin terish maqsadida

toqqa chiqqan Vovoka g'alati ovozni eshitadi. Shu ovozga ergashib ketib yiqilib tushadi va shu yerda u Buyuk Ruh bilan vafot etib ketganlar ruhlarini ham ko'radi. Buyuk ruh unga unga o'z qabilasiga qaytishini va oq tanlilar bilan nizoga bormay tinch yashash kerakligini uqtiradi. Shu bilan birga Buyuk ruh unga raqs ijrosini ko'rsatadi va qabilaga yetkazishni Vovokaga vazifa sifatida topshiradi. Raqs qoidalariga rioya etish talab etiladi. Raqs besh kun mobaynida ijro etiladi. U kunning ma'lum vaqtida ijro etilishi kerak. Besh kunning raqsida besh xil raqs elementi mavjud. Raqs elementlarida tabiat hodisalarini boshqarish xususiyati aks ettirilgan. Ya'ni yomg'ir yog'dirish, shamol chaqirish, qor yog'dirish, quyoshni chaqirish, zilzila chaqirish kabi raqs harakatlari ijro etiladi. Buyuk Ruhdan ruhlar raqsini o'rgangan Vovoka qabilasiga qaytib keladi. Qabiladoshlariga raqs o'rgatar ekan, atrofidagi boshqa qabila vakillari ham eshitib o'rganish maqsadida uning oldiga kela boshlaydi. Shu tariqa bu raqs qabilalarni birlashtirdi va ularning madaniyatida muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan Kaliforniya hududlarida istiqomat qilgan hindu qabilalari ruhlar raqsini yaxshi farovon hayot kelishiga ishonib raqsni ijro etishdi. Ruhlar raqsining atrofga yoyilishi natijasida raqsning variantlari paydo bo'ldi. Jumladan, Lakota qabilasining ruhlar raqsi va Vundid Ni Masakrening uyg'unlashgan holda ijro etganligi yangi variantga misol bo'la oladi. Ruhlar raqsi Lakota qabilasi og'ir kunlarni boshidan o'tkazayotgan vaqtda kirib keldi. 1889-yilning noyabr oida qabila boshlig'i Kiking Beya Vovokani qabiladoshlari bilan ziyorat qildi. Lakota qabilasining maqsadi raqsni to'liq va to'g'ri etish edi. Raqs Lakota qabilasiga katta umid bag'ishlagan edi. Qabila boshlig'i Kiking Biyaning ruhlar raqsi haqidagi xabari Jeyms Maklaflining kitobida quyidagicha tasvirlangan: "Mening og'alarim sizlarga shunday va'da beramanki yer yuzida xech bir oq tanli sizga va sizning otlaringizga qo'l ko'tarmaydi. Faqat hindulargina shu hududni boshqaradi. Sizlarga ajdodlaringiz, o'ti ketganlar ruhlarining so'zlarini yetkazmoqchiman. Ular sizlar bilan birlashmoqchi va oq tanlilarga qarshi kurashda madad bo'lishmoqchi. Men Buyuk Ruhning vakili bilan suhbatda bo'ldim va sizlarga uning muhim xabarini yetkazmoqchiman. Ruhlar bahorda kelishadi va biz bunga tayyor turishimiz kerak. Bizning tayyorgarligimiz vakil o'rgatgan raqsni birgalikda ijro etishimizdir"[5]. Lakotaning ruhlar

raqsi qabilaning diniy marosimiga aylangan va muqaddas raqs hisoblangan quyosh raqsiga (The Sun Dance) o'xshab ketadi. Biroq bu raqs AQSH hukumati tomonidan 1882-yilda ta'qiqlangan. Quyosh raqsi Ruhlar raqsiga o'xshab aylana shaklda bir necha tun davomida ijro etilgan. Raqs raqqoslari og'ir kunlar tugashi va farovon hayot kelishiga qattiq ishonishgan, umid qilishgani uchun jon dili bilan raqsqa tushishgan. Hindular AQSH hukumati qo'ygan ta'qiqlarni raqs orqali yengib o'tishdi.

Tarixchi Villiyam Kolmanning ta'kidlashicha hindular hududlarida ijro etilayotgan bunday raqs AQSH hukumati tomonidan "Hindular isyoni va Urush raqsi" deb nom oldi [1]. Hukumatga yuborilayotgan hisobotlarda hindu qabilalarining boshliqlarining ism shariflari keltirilgan. Bunday ism shariflar orasida Sitting Bull, Cirkling Bear, Black Bird, Cirkling Hawk, Spotted Elk (Big Foot), Crow Dog, Low Dog of Rosebud kabi ismlar keltirilgan. Ular orasida Siting Bull Ruhlar raqsiga garchand unchalik ishonmagan bo'lsa-da, uning ismi ham keltirib o'tilgan. Chunki Siting Bul AQSH hukumati tomonidan kelishuv shartnomalarni buza olgan sardorlardan hisoblanardi.

AQSH xukumatining vakillari sardorlarni xibsga olish uchun kelganda qabilalarning qarshiligiga uchraydi va natijada qon to'kiladi. Bir nechta qabila sardorlari o'ldiriladi. Bu esa qolgan qabila sardorlarini birlashgan holda o'ldirilgan sardorlarning ruhlarini qaytarish maqsadida Ruhlar raqsi yanada kuchliroq ijro etila boshlaydi. Bu esa AQSH hukumatini yanada vasvasaga soladi. Bu raqs odatda Vundid Ni daryosi sohillarida ijro etilar va AQSH hukumati bunga qarshi choralar ko'rishga majbur bo'lardi. Mana shu choralarni qo'llash natijasida qabila sardorlari o'ldirilardi. Vundid Ni daryosi sohili bunday qonli qirg'inlarning guvohi bo'lganligi uchun Ruhlar raqsi doimiy ravishda Vundid Ni daryosi bilan birgalikda tilga olinadi.

**Xulosa:** Asar qahramonlaridan bo'lgan merri "hindu qotil balki ruhlar raqsining mevasidir" deya ta'kidlaydi. o'zligini bitta raqs orqali tub ildizigacha ochib berayotgan yozuvchi atroflicha fikr yuritadi. obrazlarni shunga mos harakatlantiradi. yozuvchi bu borada teran mushohada yuritadi. obrazlarida garchand yaxshi hayotda yashayotgan hindularni aks ettirsada, ular o'zligini unutishgani yo'q. boshqacha qilib aytganda amerikalashgan hindu baribir o'zligini qo'msamoqda. amerikalashgan hindu

amerikancha hayotni afzal koʻrmayapti. U ajdodi qanday yashagan boʻlsa, u ham shuni qoʻmsamoqda. tabiatga qoʻynida ulgʻaygan hindu farzandlari kuni kelib ajdodini izlashi yozuvchining asl maqsadidir.

Har bir hindu obrazida ruhlar raqsining tilga olinishi, qolaversa raqs ijrosi haqida bahslashishi bu raqsqa boʻlgan kuchli ishonchni bildiradi. Raqs ijrosini boshqargan sardorlarning oʻlimi esa bunga shubhasiz isbotdir. Ruhlar raqsiga tayangan va bunga sabab boʻlgan mif va afsonalarning koʻpligi qayta va qayta Sherman Aleksii asarlarida keng urgʻu beriladi.

#### **Adabiyotlar roʻyxati:**

1. Coleman W. The Voices of Wounded Knee. –Lincoln: Nebraska university Press, 2000. – 350 p.
2. Cox J. Muting white noise: the subversion of popular culture narratives of conquest in Sherman Alexei's fiction. // Studies in American Indian literatures 9.4, 1997. – P. 52-70.
3. Hittman M. Wovoka and the Ghost Dance. Lincoln: University of Nebraska, 1997. – P. 102
4. Kihoe A.B. The Ghost Dance: Ethno history and Revitalization. – Ford Worth: Holt, 1989. –P. 28.
5. McLaughlin J. My friend the Indian. 1910. – Lincoln: Nebraska University Press, 1989. – 185 p.
6. Mooniy J. The Ghost Dance. North Dighton. – Washington: Government printing office. – P. 63-64.
7. Sherman A. The Business of Fancy Dancing. – Brooklyn: Hanging Loose P 1992. –P. 310.
8. Sherman A. A drug called tradition. – New-york: Atlantic, 1993. –P. 182.
9. Vizenor G. Manifest manners: narratives on post Indian survivance 1994. – Lincoln: Nebraska university Press, 1999. – 350 p.

